

MASALLARNING BOLALAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Jamilova Norjon Abduxoliq qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalar hayotida masallarning o'rni va ahamiyati haqida. Masal bu insonni aqliy va ruhiy rivojlantiruvchi, yaxshini yomondan ajrata bilishni o'rgatuvchi vositadir.

Abstract. This article is about the role and importance of parables in children's lives. A parable is a tool that develops a person intellectually and spiritually, and teaches him to distinguish between good and bad.

Аннотация. Эта статья о роли и значении притч в жизни детей. Притча – это инструмент, который развивает человека интеллектуально и духовно, учит его отличать хорошее от плохого.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, jahon adabiyoti, ertak, janr, masal.

Key words: children's literature, world literature, fairy tale, genre, parable.

Ключевые слова: детская литература, мировая литература, сказка, жанр, притча.

Masal-didaktik adabiyot janri. Masallarda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, munosabatlar; qushlar va hayvonlar orasidagi munosabatlar va tabiat hodisalari vositasida aks ettiriladi. Ertaklar bolalarni ezgulikka, yaxshilikka o'rgatgani kabi, masallar ham yaxshilikka, yaxshini yomondan ajrata bilishga, hayvonlar va qushlar timsoli orqali odamlarning xulq-atvorini, xatti-harakatini, dunyoda qanday turdagi odamlar borligini, ularni farqlay olish kerakligini o'rgatadi. Bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan masallar tarbiyaviy ahamiyatga juda boy. Bu masallar majmui bolalar adabiyoti sanaladi. Bu masallarning asosiy qismini pand-nasihatga boy, egrilik va to'g'rilikni ajrata oluvchi voqealar tashkil qiladi.

Masallarning o'ziga xos xususiyati-bolalar hayotida soddadil, tetik, mehribon, jasoratli bo'lib o'sishini, bir qarashda yaxshi va yomon insonlarni farqlay olish qobiliyatini shakllantirish, hayvonot olamiga mehr qo'yish, uni ehtiyot qilish, asrash, avaylash, do'st tutunish bolalikdan, oiladan boshlanishini va bir umr insonga hamroh bo'lib qolishini o'rgatish masallarning eng asosiy xususiyatlaridandir.

Masallarning yana bir xususiyati tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilganligi. Bunda bolalarning qahramonga bo'lgan munosabati ham kelib chiqadi. U voqealarning qiziqarli, tezkor, fantaziyaga boy ravishda yechilishini talab qiladi. Masallarning o'z an'anaviy obrazlar va motivlar doirasi mavjud bo'ladi (hayvonlar, qushlar, o'simliklar, muayyan tizimdagi odamlar) Masal janri unsurlari qadimdan ma'lum. Uning namunalari `` Kalila va Dimna,, (Panchatantra 3-asr) tarkibida uchraydi. Masallar Farididdin Attor, Rumi, Alisher Navoiy asarlarida tamsil uchun ishlatilgan. Gulxaniy, Zarbulmasal` asarida masaldan mohirlik bilan

foydalangan. Rus adabiyotida D. Bedniy, S. Marshak, S. Mixalqov masalning ajoyib namunalarini yaratdilar. Zamonaviy o'zbek adabiyotida S. Abduqahhor, O. Qo'chqorbekov, Ya. Qurbonov va boshqalar masal janrini rivojlantirdilar.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan-elga, tildan-tilga o'tib, dillarni yashnatib yurgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Toshbaqa bilan Chayon", masalining syujeti xalq og'zaki ijodida mashhur. Gulxaniy bu masal mazmunini nasriy yo'l bilan bergan bo'lsa, Hamza unga qayta sayqal berib, nazmda bayon etgan. Hamza masalda do'stlikni ulug'laydi, firibgarlik, tilyog'lamalikni esa qattiq qoralaydi. Toshbaqa orqali rahmdil, chin do'st obrazini yaratadi. Chayon obrazida esa yaxshilikka yomonlik qaytaruvchi til yog'lama, o'z so'zida turmaydigan kishilar fosh etiladi. Shoir bolalarni tanlab, bilib do'st bo'lishga, yomon niyatli kishilar bilan hamroh bo'lmaslikka chaqiradi, kimda-kim yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytarsa, uning boshiga kulfat tushishi turgan gapligini uqtiradi.

XX asrda yashab ijod etgan o'zbek masalchilari Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Yamin Qurbon, Sami Abduqahhor, Muxtor Xudoyqulov masallarida ham tarbiyaviy jihatlar juda ko'p. "Echki va podachi", "Baqa va buqa", "Qafasdagi qush va ko'rshapalak", "Ko'rshapalaklar, qushlar va yirtqichlar", "Tovuq bilan tulki", "Sichqonlar kengashi", kabi masallar ham bolalar hayotida muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida tilga olingan masallar yosh kitobxonni nimagadir o'rgatadi, nimagadir da'vat etadi. Bu masallarning ko'pchiligida Ona Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish, do'st tanlashda adashmaslik, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish kabi g'oyalar yotadi.

Maktab darsliklarida keltirilgan Ezop, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Gulxaniy kabi bir qator jahon va o'zbek adabiyoti yozuvchilari masallarini o'quvchilar sevib mutolaa qiladilar. Ushbu yozuvchilarning masallari bolalarga har tomonlama ta'lim berishga qodir bo'lgan noyob asarlar desak yanglishmagan bo'lamiz. Jahon masalchilarining ham, o'zbek masalchilarining ham yaratgan masallari beqiyosdir. Chunki jahon va o'zbek adabiyoti bolalarning fikrlashini rivojlantiradi, ularni har tomonlama rivojlanishlariga turtki va omil bo'ladi. Masalan Ezop yoki bo'lmasa Abdulla Avloniyning qaysi masalini olmag hammasida ham, eng avvalo, mehnatkashlik, do'stlik, yaxshilik va ezgulik g'oyasi yotadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mamasoli Jumaboyev "Bolalar adabiyoti va folklor" Toshkent 2006
2. Suyumov A "Kichkintoylar adabiyoti" Toshkent 1962
3. Jahongirov F "O'zbek bolalar folklori" Toshkent 1975
4. Safarov O "O'zbek bolalar poetik folklori" Toshkent 1985